



LEV TOLSTOYNING "URUSH VA TINCHLIK" ROMANIDA TARIX,
FALSAFA VA INSON RUHIYATI TALQINI

Hakimova Shaxlo Xolniov qizi

*Termiz davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti kutubxona va axborot faoliyati yo'nalishi 2-
bosqich 124-guruh talabasi*

Bo'riyev Fazliddin Faxriddinovich

Termiz davlat universiteti tarix fakulteti falsafa kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" epopeyasi tarixiy, falsafiy va psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqolada 1805–1812-yillardagi Napoleonga qarshi urushlar fonida rus jamiyatining ijtimoiy-ma'naviy holati, tarixiy jarayonlar va xalqning taqdiri qanday badiiy talqin etilgani ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Andrey Bolkonskiy, Per Bezuxov, Natasha Rostova, Marya Bolkonskaya kabi markaziy qahramonlarning ruhiy o'sishi, ma'naviy uyg'onishi va ichki konfliktlari tahlil qilinadi. Tolstoyning fatalizmga yaqin tarix falsafasi, xalq ruhiyati haqidagi qarashlari va shaxsning tarixdagi o'rni haqidagi konsepsiyalari ilmiy mushohada qilinadi. Maqolada shuningdek, urush va tinchlik dialektikasi, axloqiy tanlov, insoniylik, kechirim, taqdir va iroda kabi muhim falsafiy masalalarning badiiy ifodasi yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, "Urush va tinchlik" nafaqat tarixiy voqealardan iborat roman, balki inson ruhiyati va ma'naviy kamolotini tadqiq etuvchi yuksak falsafiy asar ekani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Urush va tinchlik, Lev Tolstoy, tarix falsafasi, Vatan urushi, xalq ruhiyati, ma'naviy uyg'onish, ekzistensializm, qahramon psixologiyasi, urush dialektikasi, badiiy talqin, Platon Karataev, Andrey Bolkonskiy, Per Bezuxov, Natasha Rostova, tarixiy jarayonlar.

"Urush va tinchlik" (1865-1869) - Lev Tolstoyning epopeya romani 1805 - 1812 yillarda Napoleonga qarshi urushlar davridagi rus jamiyati tasvirlagan. Roman epilogidagi voqealar 1820-yillarda bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga oladi.

Roman g'oyasi "Urush va tinchlik" nomi bilan mashhur bo'lgan asar ustida ishlab boshlanishidan ancha oldin shakllangan. "Urush va tinchlik"ning muqaddimasida Tolstoy 1856-yilda u roman yozishni boshlaganini yozgan edi, "uning qahramoni oilasi bilan Rossiyaga qaytib kelayotgan dekabrist bo'lishi kerak edi. O'zim bilmagan holda, hozirgi zamondan 1825-yilga o'tdim... Ammo 1825-yilda ham mening qahramonim yetuk, oilaviy odam edi. Uni tushunish uchun men uning yoshligiga qaytishim kerak edi va uning yoshligi 1812-yilga to'g'ri keldi... Agar bizning bayramimizning sababi tasodifiy bo'lmasa-da, rus xalqi va qo'shinlarining tabiatiga asos solgan bo'lsa, unda bu mohiyat qobiliyatsizlik va mag'lubiyat davrida yanada yorqinroq bo'lishi kerak edi» Shunday qilib Lev Nikolaevichda asta-sekin voqeani 1805-yildan boshlash zarurati tug'ildi.

Asosiy mavzu - 1812-yildagi Vatan urushidagi rus xalqining tarixiy taqdiri mujassam bo'lgan. Romanda xayoliy va tarixiy 550 dan ortiq asar qahramonlarining obrazi mavjud. Tolstoy eng yaxshi qahramonlarini butun ma'naviy murakkabligida, haqiqatni uzluksiz izlashda, o'z-o'zini rivojlantirishga intilishda tasvirlaydi. Ular shahzoda Endryu, graf



Nikolay, graf Per, malika Natasha va Marya. Helen, Anatol kabi salbiy qahramonlar ruhning rivojlanishi, dinamikasi, harakatlaridan mahrum.

Romanda yozuvchining falsafiy qarashlari eng katta ahamiyatga ega. Jurnalistik boblarda voqea-hodisalarning badiiy tavsifi muqaddima qilinadi va tushuntiriladi. Tolstoyning fatalizmi uning tarixning o'z-o'zidan paydo bo'lishini "insoniyatning ongsiz, umumiy, to'da hayoti" deb tushinishi bilan bog'liq. Romanning asosiy g'oyasi, Tolstoyning so'zlari bilan aytganda, "odamlar fikri" dir. Tolstoy tushunchasida, Xalq - tarixning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, eng yaxshi insoniy fazilatlarning tashuvchisi. Asosiy qahramonlar odamlarga borishadi (Pier Borodino maydonida; "bizning knyazimiz" - Bolkonskiy deb nomlangan askarlar deyishardi). Tolstoy g'oyasi Platon Karataev obrazida mujassam. Ideal ayol - Natasha Rostova obrazida. Kutuzov va Napoleon romanning axloqiy qutblari: "Oddiylik, ezgulik va haqiqat bo'lmagan joyda buyuklik bo'lmaydi". "Baxtli bo'lish uchun nima kerak? Tinch oilaviy hayot... odamlarga yaxshilik qilish qobiliyati bilan" (L. N. Tolstoy).

Urush va tinchlik qarama-qarshiligi roman nomining o'zi ham dialektik falsafaga ishora qiladi. Urush va tinchlik bir-biriga qarama-qarashi, lekin ajralmas tushunchalar. Tolstoyning fikricha, hayotda hamisha kurash bor: "Urush bo'lmasa, tinchlikning qadriga yetmaydi" deydi.

Ko'pincha shuni o'ylanmanki, dunyoda baxt degan narsa bazan juda adolatsizlik bilan taqsim qilinarkan deydi Anna Pavlovna.

Andrey Bolkonskiyning jangga borishidagi axloqiy tanlovi Andrey shon-shuhrat izlab urushga ketadi, lekin keyinchalik bu tanlov axloqiy jihatda ma'nisizligini anglaydi.

Andrey Bolkonskiyning o'limi oldida hammani kechirishi ya'ni o'layotgan Andrey Anatolni ham, Natashani ham kechiradi, qalbining nafratdan tozalanishi haqida keltirgan.

Natasha va Mariyaning mehr-oqibat bilan qarindoshlikni mustahkamligi va bu ikki ayol bir-birining dardini, iztirobini va quvonchini his qilib, mehr, sadoqatlar haqida so'z yuritilgan.

Kutuzovning "urushda axloqi poklik" haqidagi qarashlari, Kutuzov urushni "zaruriyat" deb biladi, ammo, u insonning o'limi va iztiroblarini hurmat bilan qabul qilar edi.

Natasha uchun sevgi eng muhim qadriyat ekanligi va Natasha jamiyat odob-qoidalaridan ko'ra sevgi va samimiyatni muhim deb biladi.

Karataevning pok axloqi, Karataev soda, halol, mehrli va barchaga birdek achinish bilan qaraydi.

Per Bezuxovning pul va martaba qadrsiz deb biladi, chunki kata boylikka ega bo'lgan. Per pulni baxt keltirmasligi ekanini tushunadi.

Karataevning oddiylik va kamtarlik qadriyatlari. U "hayot soddaligida haqiqat bor" deb biladi.

Viqont istarali, xushfel va xushmuomala yigit bo'lib, aftidan, o'zini mashhur odam hisoblasa ham yaxshi tarbiya ko'rib o'sgani uchun o'tirishlarda kamtarlik ko'rsatib, o'zini suxbat axlining ixtiyoriga qo'yar edi.

Natashaning quvonchga to'la tabiati va uning istaraligi, zavqga to'laligi raqsga chanqoqligi haqida ifodalaydi.



Ulfatlarning, ayniqsa suxbatlariga noil bo'lganim xonim-qizlarning aql va fazilatlariga shu qadar maftun bo'ldimki, ob-xavo to'g'risida hali o'ylaganimcha yo'q deydi.

Rostovlar oilasi jamiyatdagi an'anaviy qadriyatlarning timsoli. Ularning ochiq qo'li, mehnatdo'stligi va sadoqati jamiyatning sog'lom asoslariga misol qilib olsak bo'ladi.

Fransuz bosqinida jamiyatning sinovdan o'tishi, urush paytida jamiyatning haqiqiy qiyofasi ochiladi: ya'ni kimdir qochadi, kimdir vatanni himoya qiladi.

Napoleon jamiyatni shaxsiy irodaga bo'ysundirdim deb o'ylashi bu Tolstoy uni "jamiyat harakatini tushunmagan odam" sifatida tasvirlaydi.

Andreyning Austertlits jangidagi ruhiy uyg'onishi osmonga qaragan A.Bolkonskiy bir lahzada insonning ulug'lik haqidagi tasavvurlar yolg'onligini tushunadi.

Perning qamoqdagi kashfiyoti va u azob ichida turib: "Inson ichida qurolga aylantirib bo'lmaydigan narsa bor" deya xulosa qiladi.

Sonya va Natashaning insoniy taqdirlari. Sonya fidoiylik yo'lini tanlaydi, Natasha esa turmush va ona bo'lishda o'z haqiqatini topadi.

Platon Karataev – insoniy mukammallik modeli, u na buyuk, na mashhur, ammo, insoniy samiyimlik, mehr, soddalik keltirilgan.

Napoleonning o'zini tarix yaratuvchi deb bilish va uni Tolstoy tanqid qiladi va tarixni bir kishi emas minglab odamlar harakati bilan yaratadi deydi.

Petrburgdagi siyosiy doiralarning tarixini noto'g'ri tushunishi va ular Napolyonni "asosiy sabab" deb o'ylaydi, ammo, Tolstoy ularning soddalik bilan tarixni o'ylashini tanqid qiladi. Kichik epizodlarning katta tarixiga ta'siri ya'ni oddiy askarning bir harakati butun jang oqimini o'zgartirishi mumkin-shu orqali "tarix mayda hodisalardan tashkil topadi" deydi.

Perning jahonga aql bilan emas qalb bilan qaray boshlashi Per siyosiy nazariyalarini o'rganadi, lekin Masonlarda aql dinini izlaydi, ammo, haqiqatni qamoqdagi oddiy odamlar orasida topadi.

Natashaning musiqani fahmlashi va u musiqani nazariya bilan emas, ruhiy sezgi bilan tushunadi.

Napoleon o'zini hamma narsani biluvchi deb o'ylashi. U bilishning chegarasini tan olmaydi, shuning uchun tarixiy haqiqatni tushunmaydi.

Kutuzovning aql bilan emas "xalq ruhiy bilishi" ya'ni General shtab aql bilan reja tuzsa, Kutuzov esa xalqning kayfiyatini his qilib qaror qabul qilardi.

Xulosa qilib aytganda asarda Bezukhov, Bolkonskiy, Rostovlar kabi obrazlar taqdiri orqali inson qalbida kechadigan shubha, izlanish, muhabbat va ma'naviy uyg'onish jarayonlari yoritiladi. Urush sahnalari tarixiy voqealarga tayanib berilgani bilan, ularning markazida har doim inson, uning ruhiyati, qadr-qimmatini turadi. Tolstoy urushni shon-sharaf emas, balki fojiaiy jarayon sifatida ko'rsatadi, tinchlik esa insoniyat uchun haqiqiy baxt manbai ekanini ta'kidlaydi.

Roman o'quvchini hayotning ma'nosi, insonning jamiyat oldidagi mas'uliyati, taqdir va iroda masalalari haqida o'ylashga undaydi.

"Urush va tinchlik" shunchaki tarixiy voqealar yig'indisi emas, balki insonning o'zini anglash, ma'naviy o'sish va hayotiy qadriyatlarni qayta kashf etishiga bag'ishlangan ulkan falsafiy asardir.



1. Tolstoy, L. N. (2010). Urush va tinchlik (4 jild). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Tolstoy, L. N. (2007). War and Peace. London: Penguin Classics.
3. Berlin, I. (1978). The Hedgehog and the Fox: An Essay on Tolstoy's View of History. New York: Simon & Schuster.
4. Eikhenbaum, B. (1962). Tolstoy in the Sixties. Ann Arbor: University of Michigan Press.
5. Christian, R. (1969). Tolstoy: A Critical Introduction. Cambridge University Press.
6. Panchenkova, E. (2012). "Philosophical Foundations in Tolstoy's War and Peace." Slavic Review, 71(3), 455–472. <https://doi.org/10.2307/41475432>
7. Carr, E. H. (1986). What Is History? London: Penguin Books.
8. Klyuchevsky, V. O. (1993). A Course in Russian History. Moscow: Mysl.
9. Clausewitz, C. von. (1989). On War. Princeton: Princeton University Press.
10. Hegel, G. W. F. (2001). The Philosophy of History. Dover Publications.
11. Frankl, V. E. (2006). Man's Search for Meaning. Boston: Beacon Press.
12. Sartre, J.-P. (2007). Existentialism Is a Humanism. Yale University Press.
13. Camus, A. (2005). The Myth of Sisyphus. London: Penguin Books.